



INTERNET YANGI KAMMUNIKATSIYA MAYDONI

Dadaxon Raimboyev

Qoraqalpoq davlat universiteti
qoraqalpoq filologiya va jurnalistika
fakulteti 4-bosqich talabasi
<https://doi.org/10.5281/zenodo.6969066>

ARTICLE INFO

Received: 28th June 2022

Accepted: 01st July 2022

Online: 02nd July 2022

KEY WORDS

Arpanet, internet, web,
dastur, milnet, login

ABSTRACT

Ushbu maqola internet va uning paydo bo'lish tarixi undagi saytlarning rivojlanishi haqida yozilgan.

Insoniyat rivojini yangi bosqichga ko'targan tamaddunlar birlashuviga tezkorlik bilan dunyoning turli burchaklaridan turib axborot almashinuviga sababchi bo'lgan internet qisqa muddat ichida millionlab insonlar hayotining ajralmas qismiga aylandi. Internet tarixiga nazar tashlar ekanmiz uning vujudga kelishiga bir qancha siyosiy omillar sabab bo'lganligini ko'rish mumkin chunki sovuq urish nafasi dunyoni larzaga keltirayotgan bir paytda AQSH hukumati yadro urushida ham omon qoladigan barcha hujjatlarni o'zida mujassam etgan tarmoq yaratishni orzu qilgan edi Shu sababli AQSH mudofaa vazirligi RAND korporatsiyasiga murojaat etdi. Mutaxassis Pol Beran uzoq masofaga anal signalni texnik uzatish qiyin bo'lganligi sababli raqamli ma'lumotlarni paketlar yordamida uzatishni taklif etadi. Pentagonga g'oyalari ma'qul bo'lib ular bunday tarmoqni yaratish uchun AT&T telefon kompaniyasiga tarmoqni yaratish uchun

murojaat etadi ammo kompaniya olim g'oyalari fantastikadan boshqa narsa emas degan xulosa beradi. 1957 yilning 4 oktyabr kuni sobiq Ittifoq koinotda ilk marotaba yerning suniy yo'ldoshini uchuradi. Bundan xabar topgan AQSH hukumati Pentagon tomonidan ilmiy tadqiqotlarga ajratilayotgan mablag' bekorga sarf bo'layapti degan xulosaga kelib mudofaa vazirligi qoshida ARPA istiqbolli loyihalar tadqiqoti agentligi tashkil etilib unga dunyoda tengi yo'q tarmoq yaratish vazifasi yuklatiladi. 1967 yili arpa direktori Larri Roberts Angliyada kompyuter tarmoqlarining istiqboliga bag'ishlangan ilmiy anjumanda qatnashar ekan Buyuk Biritaniya milliy fizika laboratoriyasida amalga oshirilgan patentlar kommunikatsiyasidan iborat tarmoq haqidagi Uesli Klarkning hisoboti uning diqqatini tortadi. 1967 yilning dekabr oyida to'rtta tugundan iborat ya'ni AQSHning 4ta universitetini birlashtirgan tarmoq tashkil etiladi va arpanet deb



ataladi. 1983-yili arpanetdan uning harbiy tarmoqlari ajralib chiqib alohida MILNET tarmogi sifatida faoliyat yuritadi. Yangi texnologiya xabar tarqala boshlagach olimlar uning ilmiy jamiyat ahli uchun ahamiyatini tushunib yetadi va keyingi takomillashtirilgan tizim 1972 yillikda universitetida ilmiy markazlarni bog'lagan holda qo'llanila boshlaydi. 1969 yilning 29 dekabr kuni kechgi 21.00 da bir-biridan 640 kilometr uzoqlikda joylashgan Los-Anjelesdagi Kaliforniya universiteti va Sendafort tadqiqotlar instituti ortasida birinchi aloqa signal seziladi. Operator Charli Klayin Sendaforda joylashgan kompyuterda Los Anjilisdan turib ulanishga harakat qiladi. Har bir uzatilgan belgining monitorda chiqishini uning hamkasbi Duval telefon orqali tasdiqlab turadi. Birinchi marta faqatgina uchta belgilar uzatiladi bular LOGIN tizimga kirish buyrug'i so'zining birinchi bog'ini edi xolos. Shundan so'ng aloqa uziladi ammo 20.00 da ularda aloqa tiklanib so'z to'raligicha uzatiladi, Mazkur sana internetning tug'ilishi sifatida rasman qayd etilgan. Arpanet tarmog'ida ma'lumotlar uzatilishi muvaffaqiyatli amalga oshirila boshlangan. 1971-yili elektron pochta jo'natish bo'yicha dastur ishlab chiqiladi va birzumda ommalashadi. Aytish joizki global tarmoq tashkil etish borasidagi tadqiqotlar nafaqat Amerika balki dunyoning boshqa davlatlarida ham olib borilgan. 1965-yili Angliya milliy fizika laboratoriyasining olimi Devid eksperimental tarmoqni kengaytirishni taklif etadi ammo uning fikri boshqa olimlar tomonidan qo'llab-

quvvatlanmaydi. 1967 yili Uesli Klarkning hisobotidan so'ng tadqiqotlarini davom ettirib 1973 yili ko'p tarmoqli laboratoriya uchun kommunikatsion paketli tarmoqni yaratishga muvaffaq bo'ladi. 1976-yil ushbu tarmoq 12 ta kompyuter va 75 ta terminal qurilma barini birlashtirgan edi. 1970-yili tarmoq tarkibiga Buyuk Britaniya va Narvegiyadagi tarmoqlar transik telefon kabel orqali qo'shiladi va shu yildan boshlab tarmoq xalqaro maqomga ega bo'ladi. 1903 yillarda ARPAning qo'llab-quvvatlash natijasida kompyuter tarmoqlari o'rtasida axborotni uzatish qoidalari ya'ni protokollar ishlab chiqiladi ammo boshqa standartlarda ko'rilgan tarmoqlar mazkur protokollarining muvaffaqiyatli ishlashiga xalaqit beradi. Mazkur muammo umumiy protokolini qabul qilish orqali yechiladi va 1983 yil 12 yanvar kuni barcha davlatlarda mazkur protakolga o'tish natijasida arpanet internet deb atala boshladi. O'zbekiston jahon hamjamiyatidan munosib o'rin egallar ekan mustaqillikning ilk yillaridanoq jamiyat hayotining barcha sohalarida zamonaviy axborot texnologiyalarini kompyuter texnikasida telekommunikatsiya vositalarini ommaviy ravishda joriy etish hamda ulardan foydalanish fuqarolarning axborotga ortib borayotgan talab ehtiyojlarini yanada to'laroq qondirish jahon axborot resurslaridan bahramand bo'lishini kengaytirish uchun qulay shart-sharoitlarni yaratish aloqa va axborot kommunikatsiya sohasini rivojlantirishning asosiy vazifalaridan biri sifatida belgilab oladi.